

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
on the theme " *Architecture is the Abode of Time* "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University

AN'ANAVIY YAPON BOG'-PARK SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA
DAYMYO BOG'LARINING AHAMIYATI

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti

Boboyeva Fotima Sobirjonovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada Daymyolar tomonidan barpo etilgan Yaponiyaning 3 ta eng mashhur va yirik bog'lari analiz etilgan. Shuningdek, Daymyo bog'larining yapon an'anaviy bog'-park san'atining rivojlanishida va yapon bog' modelining shakllanishidagi o'rni chuqur tahlil qilingan. Daymyo bog'larining asosiy xususiyatlari, elementlari, tarkibiy qismlari atroflicha tahlil etilgan, hamda bog'larning rivojlanishida mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va diniy vaziyatning ta'siri analiz qilingan.

Kalit so'zlar. Yapon bog'lari, Daymyo, yatsuxasu ko'prigi, Kayraku-en, Koraku-en, Okayama Kenroku-en, Kanadzava, Edo davri.

Kirish. Butun dunyo bo'ylab yapon bog'-park san'atiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Qadimiy yapon bog'larining kompozitsion usullari, tarkibiy qismlari o'rganilib kelinmoqda. Qadimiy an'anaviy yapon bog'lari yangi yapon bog'lari uchun andoza sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun qadimiy an'anaviy yapon bog'larining asosiy xususiyatlari, tarkibiy qismlari va elementlarini o'rganish, kelajakda yangi yapon bog'larini barpo etishda yordam beradi. Dunyoda ko'plab an'anaviy yapon bog'lari barpo etilmoqda. Mazkur muammoga bag'ishlangan izlanishlar respublikamiz landshaft arxitektura sohasida chuqur tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Biroq, mazkur mavzuni mahalliy olimlarimiz: A.S.Uralov va L. A.Adilovalar, K.D.Raximovlarning va boshqa adabiyotlarda qisman ko'rsatilgan. Rus tilida nashr etilgan adabiyotlarda olimlar va mutaxassislardan L.I.Galkina, N.S.Nikolaeva, L.A.Lebedeva, S.A.Mostovoy va A.S.Pavlova, M.P.Zgurskaya, P.I.Prixodsko, Ye.V.Goloseva, A.B.Zaytsev, A.N.Memeryakov va boshqa adabiyotlarida ko'rsatilgan. G'arb landshaft arxitektorlari va kitobxonlari ilk bor 1893-yilda an'anaviy yapon bog'i haqida batafsil ma'lumotga J.Konder sababli ega bo'lishgan. Uning ilmiy-tadqiqot ishining asosini Edo(1603-1868) davridagi yozma manbalardan biri " Tog'li (tepalikli) bog'larni yaratish bo'yicha qo'llanma"ni tahlil qilish bo'lgan. Shuningdek, g'arb mamlakatlarida yapon bog'larini L. Kuk, M. Bring, G. Nitsshe, M. Kin, K. Chyumi, V. Kautert kabilar o'rgangan.

Tadqiqot uslubi. Muammoga kompleks yondashilgan bo'lib, quyidagi xususiy ilmiy izlanish usullarini o'z ichiga oladi. Muammoga doir ilmiy va maxsus adabiyotlarni o'rganishdan to'plangan materiallarni taqqoslash usulida tahlil qilish, xususan, an'anaviy yapon bog'i modelining shakllanishida Edo davrida barpo etilgan Daymyo bog'larining ta'sirini o'rganishdan va umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqot materiallari. XVI asr boshlarida Yaponiya poytaxti Edo (hozirgi Tokio) shahriga ko'chdi. Yaponiya tarixida Edo (1615-1868) davri boshlandi. Momayama davri o'rnini egallagan Edo davri nisbatan osoyishtalik va farovonlik davri hisoblangan. Daymyolar o'rtasidagi o'zaro urushlarning tugashi va mamlakatning Tokugava syogunati hukmronligi ostida butunlay birlashishi davri edi va hukumat harbiylar qo'lga butunlay o'tdi. Mamlakatning eng yirik harbiy feodal oilalarini Daymyo deb atashgan [7].

Daymyolar qurollarini chetga olishgan bo'lsada, tinch zamonda ham raqobat ruhini yuqotishmadi. Edo davrida, qudratli feodal oilalar ya'ni Daymyolar orasida ham bog' yaratish urfga aylangan. Ular o'zlarining kuch-qudratini va ustunligini shu yo'l bilan namoyish etishgan. O'sha paytda Yaponiyada 300 yaqin feodal oilalar bo'lib, ularning har birida 3 ta qarorgoh mulkga ega bo'lishi lozim edi. Ushbu, qarorgohlarning albatta, bog'lari bor bo'lgan. Daymyolar nafaqat, o'zlarining viloyatlarida balki, syogunatning yangi poytaxtidagi qarorgohlarida ham bog'lar barpo etishdi. Odatda, maydoni kattaroq (2 ga va undan ko'proq) bog'lar Edo shahrining tumanlarida yoki boshqa viloyatlarda qurilgan. Bog'larga bo'lgan talab oshgani sabab, bog'dorchilik kasb sifatida mashhur bo'ldi.[4]



1-rasm Koraku-en bog' tarhi

2-rasm Koraku-en bog' ko'rinishi

Shuningdek, Edo davrining birinchi syogunati Tokugava tabiatni ayniqsa, gullarni yaxshi ko'rgan inson sifatida tanilgan. Shu sababli, hukumatning katta yordami bilan bog'dorchilik san'ati jadal rivojlandi. Yapon an'anaviy bog'dorchilik san'ati yanada jonlanib, keng tarqaldi [3].

Bu bog'lar o'z egalarining qudratini, dunyo qarashini aks ettirib, dam olish va syogunat rahbarlarini kutib olish uchun mo'ljallangan. Rasmiy tashrif uchun bog'da choy marosimini o'tkazish uchun choy bog'i (rodzi), choy uyi va No teatri uchun sahna joylashtirilgan. Xozirda ko'plab Daymyo bog'lari qayta tiklandi, ba'zilar qisman saqlanib qolgan. Biz siz bilan Daymyolar tomonidan barpo etilgan Yaponiyaning 3 ta eng mashhur va katta yapon bog'larini ko'rib chiqamiz. Shunday bog'lardan biri mahalliy Daymyo Ikedoy Sunamasoy tomonidan qurilgan bo'lib, Okayama shahrida joylashgan Koraku-en bog'idir. Koraku-en bog'i Okayama qasrining qarshisida joylashgan bo'lib, 1702-yilda qurilgan. Bog' hududi 13,3 gektar maydonni egallaydi. Bog' Edo davriga xos holda tekis maydonda joylashganiga qaramay, unda sun'iy tepaliklar, sharshara va hovuzlar

mavjud. Bog' dzen-buddizm g'oyalariga asoslanmagan bo'lib, sayr etish uchun mo'ljallangan. Bog'da 2 ta choy uyi va sharqiy tomonda esa choy plantatsiyasi, sholi maydoni mavjud. Bog'ning markazida sun'iy tepalik (tsukiyama) mavjud, unda yulaklar joylashtirilgan. Bu bog'dagi eng yuqori nuqta.

Tepalikda ko'plab gullayotgan rododendronlar e'tiboringizni tortadi. (1 va 2-rasmlar)

Tepalik yonbag'rlaridan biri toshbaqalar yashaydigan katta hovuzga olib boradi. Hovuz ortida choy bog'i bo'lib, undan uncha uzoq bo'lmagan joyda turnalar ini ham bor. Shuningdek, bog'da 2 ta sharshara va 2 ta hovuz bo'lib, ular o'zining ohangdor sadosi bilan mashhur [2].

Bog'ning katta qismini ochiq muhit keng maysazorlar tashkil qilgan bo'lib, bu yapon bog'ida noyob xodisa hisoblangan. Ochiq maysazorlar va gullayotgan rododendronlar bog'da o'zgacha kontrast hosil qiladi. Shu bilan birgalikda, bog'da olcha, olxo'ri va chinorzorlar zonasi ham bo'lgan. Shuningdek, bog'da glitsiniya, sakura, kameliya kabi yapon an'anaviy o'simliklar ekilgan bo'lib, tabiiy ravishda shakllangan o'simliklar ham mavjud. Bog'ning barpo etilishiga 14 yil sarflangan. Afsuski, Okayama saroyi 2-jahon urushida vayron holga keldi. Saqlanib qolgan tasvirlar asosida 1966-yilda qayta tiklandi. Bog' ham qisman zarar ko'rgan bo'lib, xalq tomonidan tiklandi [1].

Yana bir Daymyolar tomonidan barpo etilgan va yapon bog'-park san'ati modelining shakllanishida hissa qo'shgan Mito shahrida (hozirgi Tokio) joylashgan Kayraku-en bog'idir. U ham Yaponiyaning eng mashhur va yirik bog'laridan biri hisoblanadi. Mito feodal oila a'zosi Tokugava Yerifusa buyrug'i asosida 1629-yil qurila boshlagan bo'lsa, keyinchalik shu oilaning to'qqizinchi avlodi bo'lmish Mitsukuni Tokugava tomonidan 1841-yilda qurilgan. Bog' hududi 7 gektar maydonni egallaydi. (3-rasm)

Bog'ning har bir qismi yoki kompozitsiyasi yapon tarixi, xitoy mifologiyasi va madaniyatining alohida epizodini o'zida mujassam etgan. Kayraku-en so'zi (okayamadagi koraku-en singari) so'ngida rohatlanish degan ma'noni anglatib, xitoy poemasidan olingan. Bog' sayr uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy marshrut markaziy hovuz atrofida joylashtirilgan. Bog'ning tarxi xitoy uslubida bo'lib, xitoy va yapon tabiatining diqqatga sazovor joylarini miniatyura ifodalaydi. Bog'da sholi dalasi mavjud bo'lib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Yonida esa botqoqlik bo'lib, unda nilufar va iris gullari o'sadi. Botqoqlikdan o'tish uchun zig-zag tarzda yog'och ko'priqi qurilgan. U yatsuxasu deb nomlanib, boshqa analogga ega emas. Ko'prikning bunday g'ayrioddiy va murakkab shakli Yaponiyada borliqning mohiyatini tushunish, inson hayot yo'lining bir tekisdamasligining ramzidir. U yapon bog'larining an'anaviy elementi hisoblanadi. Bog'da 3 ta hovuz bo'lib, ular 2 ta kichik va 1 ta yirik hovuzlardir. Bog'da 2 ta xitoy uslubida qurilgan ko'priklar bor. Birinchisi tosh ko'priki, u Xitoyda min sulolasi hukmronligi davrida shakllangan ko'priki nuxsasi hisoblanadi. Sutenke ko'prigidir. Ko'priki o'zining yorqin qizil rangi bilan e'tiborni jalb etadi. (4,5,6- rasmlar)



3-rasm. Kayraku-en bog' tarxi



4-rasm. Sutenke ko'prigi
5-rasm. Yatsuxasu ko'prigi
6-rasm. Tosh ko'prik

Shuningdek, bog' o'zining gullaydigan gilos va olhuri daraxtlari bilan mashhur. Ushbu bog'da va uning atrofida 3000ga yaqin olxo'ri va gilos daraxtlari o'sadi. Ularning 100 ortiq navlari ekilgan. Xozirda kayrakuen bog'ida Xanami milliy bayrami nishonlanadi va turli festivallar o'tkaziladi. (7-rasm)

Edo davrida barpo etilgan mashhur uchinchi bog' Kanadzava shahrida joylashgan Kenroku-en bog'idir. Kenroku-en bog'i 1620-yildan 1840-yilgacha Maeda feodal oila rahbari ya'ni Daymyo tomonidan barpo etilgan. Bog' dastlab, Maeda sulolasining 5-Daymyosi tomonidan qurilgan. Biroq, bog' 1759-yili yong'in sabab vayron bo'lgan. 1774-yil Maeda sulolasining 11- daymyosi tomonidan qayta tiklandi. U zumrad sharsharasini va choy bog'larini, Maeda sulolasining 12 va 13-Daymyolar esa hovuzni kengaytirdilar va bog' bo'ylab irmoqlarni qo'shishdi [1].

Kenroku-en bog'i Kanadzava saroyining tashqi qismida qurilgan bo'lib, qal'a vazifasini bajargan. Hozirgi kunda bog' 10 ga hududni egallaydi (8-rasm)

Kenroku-en "olti elementli bog' degan ma'noni anglatib, bog'ning yaratilishida asos bo'lgan olti tamoilni (soddalik, sokinlik, panoram ko'rinishga ega bo'lish, qadimiylik, suv oqimiga ega bo'lish va inson qo'lining mahorati) o'zida mujassam etgan. Bog'ning deyarli markazida joylashgan Kasumiga-ike hovuzi okeanning ramzidir.. Bog'da 9 mingdan ortiq daraxtlar va 183 turga mansub gullar va o'simliklar o'sadi. Ularning aksariyatini yapon an'anaviy o'simliklar tashkil etadi. Bog' yilning har qanday faslida ham o'zining go'zalligi bilan hayratga soladi. Qishda daraxtlar qor og'irligidan sinib ketmasligi uchun arqon (kanatlar) bilan o'raladi. Kechqurun esa daraxtlar zamonaviy yoritgichlar yordamida yanada chiroy ochadi. Bahorda gilos va olxo'ri daraxtlari gullab, yozda bog'dagi mohlal o'zining yashil rangi bilan va kuzda yapon chinorlar to'q qizil tusga kirishi bilan o'zgacha kalori hosil etadi [6].



7-rasm. Kayraku-en bog'idagi olxo'rizar



8-rasm. Kenroku-en bog' tarhi

Kenrokuen bog'ida boshqa bog'larda uchramaydigan qadimiy favvora mavjud bo'lib, u tabiiy bosim ostida ko'tariladi. Favvora toshdan yasalgan bo'lib, sodda ko'rinishga ega. Shuningdek, bog'da yapon an'anaviy bog'ining barcha atributlari mavjud bo'lib, ularga tosh chiroqlar, tosh ko'priklar va yo'laklar, xoray tog'i, choy uyi va pagodi kabilar kiradi[1].

Natijalar Edo davridagi Daymyo bog'larning hajmi oldingi davrdagi bog'larga qaraganda ancha katta bo'lgan. O'sha paytda Yaponiyada 300 yaqin feodal oilalar bo'lib, ularning har birida 3 ta qarorgoh mulkga ega bo'lishi lozim edi. Ushbu, qarorgohlarning albatta, bog'lari bor bo'lgan. Bog'lar Daymyolar hayoti bilan chambarchas bog'liq edi. Bog'lar ular uchun siyosiy uchrashuvlar, muzokaralar va she'riyat bazmlarini o'tkaziladigan joy, dam olish va choy marosimini tashkillashtiradigan hamda, jang san'ati va meditatsiya qilish joyi sifatida xizmat qilgan. Bu bog'lar o'z egalarining qudratini, dunyo qarashini aks ettirib, dam olish va syogunat rahbarini kutib olish uchun mo'ljallangan. Biz yuqorida ko'rib chiqqan Koraku-en, Kayraku-en va Kenroku-en bog'larining paydo bo'lishi yapon bog'-park san'atining keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, yapon bog'dorchiligida yangi bosqichni belgiladi. Ushbu yapon bog'larining durdonalari Bu bog'larning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sayr etish uchun mo'ljallangan kayyusiki uslubi asosida murakkab rejayviy tuzilishga egalidir. Bog'larda dzen-buddizmning ta'siri kamayadi. Aksariyat bog'lardagi markaziy guruhdagi inshootlar syoin-dzukuri uslubida qurilishining amaliy sabablari bo'lgan. Asosan yog'ochdan qurilgan inshootlar yong'inga uchraganida, hovuzlarning ularga yaqin joylashishi bunga yechim bo'lgan. Hovuzlar suv ombori vazifasini ham o'tashgan. Shuni ta'kidlash mumkinki, Edo davridagi bog'larning ko'pchiligi shu qatorda, Daymyo bog'lari ham mavjud ko'llarda, tog' yonbag'irlarda qurilgan bo'lib, bog' uchun sun'iy hovuzlar va tepaliklar qurish zaruriyatini bartaraf etgan. Bog' sayr uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy marshrut markaziy hovuz atrofida joylashtirilgan. Quyidagi jadvalda Daymyo bog'larining shakl-shamoili va xususiyati hamda, bog'larining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar va bog'larning vazifasi keltirilgan.

Daymyo bog'larining shakl-shamoili va xususiyati	Daymyo bog'larining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar va bog'larning vazifasi
Kayyusiki uslubida murakkab rejayviy tuzilishga ega ko'pfunksiyali bog'lar shakllangan. Ko'p funksiyali bog'larda hovuzli, irmoqli, quruq peyzajli tekis bog'lar, choy marosimi bog'lari hamda, kayyusiki turidagi bog'lar uyg'unlashadi.	Dzen-buddizm g'oyalariga asoslanmagan bo'lib, sayr uchun mo'ljallangan.
Chinorzor, bambukzor, olxo'rizarlar bog'ning alohida yacheykalarida massiv tarzda ekilgan.	Bog' landshaft dizaynida Xitoyning ta'siri bo'lgan.
Ochiq muhitli keng maysazorlar tashkil etgan.	G'arb mamlakatlarining ta'siri kamayadi.
Bog'larning hajmi kattalashgan.	Meditatsiya qilish,
Hovuzlar soni 2 va undan ortiq bolgan va ular irmoqlar orqali bog'langan.	Rasmiy tashriflar o'tkazish
Bog'da ko'plab gullaydigan o'simliklar ekilgan.	Choy marosimi o'tkazish
Bog'da hayvonlar bo'lgan Toshbaqalar oroli. Turna ini, tovuqlar	Jang mashg'ulotlari o'tkazish

Munozara. Daymyolar tomonidan juda ko'plab bog'lar qurilgan. O'sha davrda 300 yaqin feodal oilalar bo'lib, barchasining bog'lari mavjud bo'lgan. Ularga tegishli bog'larning ko'pchiligi saqlanib qolmagan. Faqatgina yiriklari saqlanib qolgan. Shular qatoriga Rakusyuen, Rikugien, Xama-Rikyu va Yusentei kabilarni kiritishimiz mumkin. Ushbu bog'lar ham sayr etish uchun mo'ljallangan bo'lib, murakkab rejayviy tuzilishga ega. Bog' tarkibida choy uyi, quruq bog', bir necha havuz va orollar bo'lgan. Inshootlar sinden-siyon uslubida joylashtirilgan. Bu bog'lar ham yan'anaviy yapon bog' modeliga xos tarzda barpo etilgan. Afsuski, barcha Daymyo bog'larini chuqur tahlil qilish murakkab. Biz faqatgina, Daymyolar tomonidan barpo etilgan 3 ta eng mashhur va yirik bog'larni ko'rib chiqdik. Ushbu bog'lar Edo davrida yapon bog'-park san'atining gullab yashnaganidan dalolat beradi. Daymyolarga tegishli ko'plab bog'lar Edo davrining qulashi bilan jamoat bog'lariga aylantirilgan. Hozirgi kunda ular madaniy tarixiy yodgorliklar bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Xulosa. Edo davridagi Daymyo bog'lar oldingi davrlardagi bog'larning barcha o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassam etganligi sabab, ko'pfunksional yapon bog'i deb hisoblanadi. Qayiqda sayr etish uchun mo'ljallangan katta hovuzlar Xeyan, aylanma va buramali oqimlar va massiv toshlar Muromati, bog' manzarasidan bahramand bo'lish uchun yopiq pavilonlar Kamakura va Muromati, orollar va tosh ko'priklar hamda, choy marosimi bog'lari Momayama davri bog'larining xususiyatlarini umumlashtirgan. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Edo davrida barpo etilgan Daymyo bog'lari o'tmishdagi bog'larning barcha eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassam etgan. O'shbu davrda yapon bog'ining an'anaviy modeli shakllandi. Yapon an'anaviy bog'dorchilik san'ati yanada jonlanib, mamlakat bo'ylab keng tarqaldi. Daymyolarning o'z ustunligini va qudratini ko'rsatish istagi yapon bog'dorchiligining misli ko'rilmagan yuksalishiga olib keldi. Bog'larga bo'lgan talab oshgani sabab, bog'dorchilik kasb sifatida mashhur bo'lgan. O'sha davrda Yaponiya uchun yangilik hisoblangan Daymyo bog'laridagi landshaft g'oyalar an'anaviy yapon modelini tashkil etib, yangi bog'larda ko'p marotaba takrorlanib kelmoqda.

References

1. Е. В. Голосова. Японский сад. История и искусство. Москва. МГУЛ, 2002
2. А. Б. Зайцев .Садов Японии прекрасные черты. Санкт-Петербург 2021
3. Голосова Е.В.: 1) Японский сад : история и искусство. М. : МГУЛ, 2002. 284 с.; 2) Проблемы формирования и становления восточноазиатских и западноевропейских садов и парков под влиянием садоводческих традиций Китая (на примере Китая, Японии и Великобритании) : автореф. дис. ... доктора сельскохозяйств. наук / Гл. ботан. сад им. Н.В. Цицина РАН, Моск. гос. ун-т леса. М. : 2011. 47 с
4. Nitschke G. Japanese gardens. Koln : Taschen, 2003. 240 p.
5. Yoshikawa I. Teien shokusai yogojiten. Dictionary of gardening terms. Tokyo: Inoue shoin, 2002. Jap. language
6. sayt.http://www.100roads.com/2021/08/20/kanazawa_kenrokuen
7. М. П. Згурская. Китайский и японский сад. Москва, 2009